



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayeva X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA


Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Dilfuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
“Qurilish jarayonlari texnologiyasi” fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Saida Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlrat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Hakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi “muhosaba” va “tafakkur” amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati.....	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehriining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы.....	211
Сулейманова Нилуфар Камилловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	

O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'ribojevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafuz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY SALOHIYATINI OSHIRISHDA TARBIYACHI MAHORATI



Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi

Farg'ona shahar 37–maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining innovatsion texnologiyalar asosida ta'limiy faoliyat olib borish jarayonida uchrashi mumkin bo'lgan muammolar hamda ularning samarali yechimlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, pedagogik mahoratni rivojlantirish va bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: metodika M. Montessori, innovatsion yondashuv, kommunikativlik, ta'sirchanlik, motivatsiya, o'yin, loyihalash, muammoli vaziyat.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the challenges that preschool educators may face when implementing educational activities based on innovative technologies and the effective solutions to overcome them. Particular attention is given to the development of professional skills, the application of modern methodologies, and the enhancement of children's cognitive activity.

Key words: methodology M. Montessori, innovative approach, communication, inspiration, motivation, play, projection, problem situation.

Аннотация: В данной статье проведён научный анализ возможных трудностей и эффективных решений, с которыми могут столкнуться воспитатели дошкольных образовательных организаций при реализации образовательной деятельности на основе инновационных технологий. Особое внимание уделено развитию профессиональных навыков педагогов, применению современных методик и повышению познавательной активности детей.

Ключевые слова: методика М. Монтессори, инновационный подход, коммуникация, вдохновение, мотивация, игра, проектирование, проблемная ситуация.

KIRISH

Bolalik – inson shaxs sifatida shakllanishining eng muhim va mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi. O'ziga xos dunyoqarash va tabiiy qobiliyatlarga ega bo'lgan bolalarning ta'lim–tarbiyasi pedagogdan nafaqat chuqur bilim va yuksak saviyani, balki zamonaviy innovatsion texnologiyalarni puxta bilishni ham talab etadi.

O'quv–tarbiyaviy jarayon samaradorligi pedagogik tizimni uzluksiz takomillashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim sifatini oshirish esa faqat yuqori malakali, salohiyatli va ijodkor kadrlar faoliyati orqali ta'minlanadi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi so'zlari alohida ahamiyatga ega: *“Biz keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri – ya'ni uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik.”*

Mazkur fikrlar ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir pedagog–ustoz zimmasiga ulkan mas'uliyat va sharaflı vazifani yuklaydi. Har qanday buyuk shaxs, donishmand yoki mutafakkir ham ustoz tarbiyasida kamol topganini inobatga olsak, bu holat ustoz shaxsining beqiyos mahorati, fidoyiligi va kasbga bo'lgan sadoqatidan dalolat beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umuman olganda, tarbiyachi–pedagogning asosiy funksiyasi – bilim berish, tarbiyalash, ta'lim jarayonini tashkil etish hamda bolalar rivojlanishini boshqarishdan iboratdir. Tarbiyachi o'rgatuvchi emas, balki bolani bilimni mustaqil egallashga yo'naltiruvchi, tarbiyalovchi emas, balki tarbiyaviy jarayonni amalga oshiruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Shu bois u o'z faoliyatida ko'rgazmali vositalar, o'yin elementlari va tarbiyaviy ta'sirlar orqali bolalarning dunyoqarashi, fikrlashi hamda muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi.



Mariya Montessori metodikasi – bolalarning erkin tanlovi, mustaqilligi va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga asoslangan ilg'or ta'lim tizimidir. Bu metodika “Menga o'zim mustaqil bajarishim uchun yordam ber” tamoyiliga tayanadi. Montessori metodining asosiy g'oyasi – bola shaxsini hurmat qilish, uning tabiiy qiziqishi va mustaqil faoliyatini rag'batlantirishdir. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar ham ushbu metodikaning samaradorligi yuqori ekanligini qayd etadi.

Shu sababli har bir tarbiyachi o'z kasbiy mahoratini oshirish jarayonida Montessori metodikasining tamoyillarini puxta o'rganishi va ularni amaliy faoliyatida samarali qo'llay olishi muhimdir.

Pedagog bolalar jamoasini boshqarishda o'zining individual boshqaruv loyihasini ishlab chiqishi zarur. To'g'ri belgilangan maqsad va aniqlik bilan qo'yilgan vazifalar tarbiyachiga o'z faoliyatini puxta rejalashtirish, o'quv–tarbiyaviy jarayonni yuqori samaradorlik bilan tashkil etish imkonini beradi.

Bugungi kunda jamiyat hayotini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Har bir sohada yangilik yaratish, innovatsion yondashuvni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barcha innovatsion texnologiyalar inson aqliy salohiyatining mahsuli bo'lib, tafakkur va ijodiy fikrga asoslanadi. Aynan aqliy qobiliyat va ijodiy tafakkur kelajakda kashfiyotlar yarata oladigan yetuk insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Mazkur jarayon quyidagi mantiqiy ketma–ketlik orqali izchil tarzda namoyon bo'ladi:

Inson aqliy salohiyati → Innovatsiya → Pedagogik mahorat → Aqliy salohiyati yuksak inson

Aqliy salohiyat har bir bolada individual tarzda shakllanadi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida bilishga bo'lgan ehtiyojni his qiladi va bu ehtiyoj uning fikrlash faoliyatida, kundalik amaliy harakatlarida asta-sekin namoyon bo'la boshlaydi. Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy maqsadi – bolaning bilish faolligini oshirish, tafakkurini kengaytirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagog bolalarning aqliy salohiyatini o'stirish jarayonida ularning mavjud aqliy imkoniyatlarini aniqlab olishi zarur. Har bir bola o'ziga xos tafakkur sur'ati, bilish uslubi va idrok darajasiga ega bo'lganligi sababli, pedagog bu xususiyatlarni chuqur tahlil etishi lozim. Ba'zi bolalarda aqliy teranlik va kuzatuvchanlik yuqori bo'lsa, boshqalarda tafakkur sekinroq shakllanadi. Bunday holatlarni aniqlash va individual yondashuv asosida rivojlantirish pedagog mahoratining muhim ko'rsatkichidir.

Bolalarning bilimlarni o'zlashtirishida uchraydigan tabiiy qiyinchiliklarni bartaraf etishda pedagogning roli beqiyosdir. U o'quvchi shaxsini to'g'ri baholab, ta'limiy faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tashkil etsa, kutilgan sifat va miqdoriy natijalarga erishadi. Faoliyat natijasini oldindan prognoz qilish va unga erishish mexanizmini belgilash – har bir zamonaviy pedagog uchun muhim strategik ko'nikmadir.

Kun davomida bolalar jamoasini boshqaruvchi tarbiyachi ularning dunyoqarashini shakllantirishda yetakchi o'rinni egallaydi. Shu bois tarbiyachi-pedagog o'z faoliyatida quyidagi sifatlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratishi zarur:

- 1. Tashkilotchilik** – bolalarni jamoaga birlashtirish, ularni topshiriqlarni bajarishga rag'batlantirish, ularning yutuqlarini adolatli baholash.
- 2. Didaktik mahorat** – o'quv materiali, ko'rgazmali vositalar va o'yinlarni to'g'ri tanlash, ularni tushunarli, aniq va izchil bayon etish orqali bolalarda bilishga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish.
- 3. Kommunikativlik** – bolalarning o'zaro hamkorlikda ishlashini tashkil etish, ular o'rtasida o'zaro hurmat, samimiylilik va ahillik muhitini yaratish.
- 4. Sug'gestivlik** – bolalarga ijobiy emotsional ta'sir ko'rsatish, ularning ishonchini qozonish orqali mehr-muhabbat muhitini shakllantirish, bolalar uchun qulay psixologik sharoit yaratish.
- 5. Izlanuvchanlik** – pedagogik jarayonlarni tahlil qilish, yangi interaktiv metodlarni o'zlashtirib borish va ularni amaliyotda qo'llay bilish.
- 6. Ilmiy ijodkorlik** – ta'lim sohasidagi ilmiy yutuqlarni o'rganish, innovatsion tajribalarni amaliyotda qo'llash va o'z pedagogik faoliyatini muntazam takomillashtirib borish.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi–pedagogning aqliy, kasbiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tizimining sifat darajasini belgilovchi eng muhim omillardan biridir. Shu jihatdan, pedagog o'z faoliyatida ilmiy–nazariy bilimlar, zamonaviy metodikalar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni uyg'unlashtirgan holda, bolalarning aqliy salohiyatini yuksak darajada rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Zamonaviy davrning tezkor rivojlanish sur'atlari bilan bir qatorda innovatsion yangiliklar ham jadal takomillashib bormoqda. Ta'lim jarayonida bu yangiliklardan oqilona va ehtiyotkorlik bilan foydalanish muhim ahamiyat

kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hali yosh bo'lgani sababli, ularning fikrlash qobiliyati endigina shakllanayotgan nozik bosqichda bo'ladi. Shu bois pedagog har bir faoliyatni bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishi zarur.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ikki yoshgacha bo'lgan bolalarda bilish faolligi nihoyatda yuqori bo'ladi. Bola ongi tez sur'atlarda rivojlanadi va uch yoshga kelganda ularning tafakkur salohiyati kattalar aqliy quvvatining taxminan 80 foiziga tenglashadi. Shu sababli bolalarning aqliy faoliyatini ortiqcha zo'riqishdan asrab, ularning tabiiy rivojlanish sur'atini qo'llab-quvvatlash zarur.

Bolalarning yetakchi faoliyati – bu o'yindir. O'yin jarayoni ularning erkin harakat qilishiga, emotsional holatini muvozanatda saqlashga hamda o'zini ifoda etishiga imkon yaratadi. O'yin orqali bola nafaqat bilim oladi, balki dunyoqarashini kengaytiradi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bois o'yinli faoliyat maktabgacha ta'lim sifatini oshirishda samarali pedagogik vosita sifatida e'tirof etiladi.

Bolalar jamoasida tabiiy ravishda sog'lom raqobat, o'zaro fikr almashuv va turlicha munosabatlar kuzatiladi. Tarbiyachi ana shunday jarayonlarni boshqarishda pedagogik mahoratini namoyon etadi. Ba'zan bolalar o'rtasida mayda kelishmovchiliklar, "men"ligini ifoda etish istagi yoki hamkorlikdagi topshiriqlarda mas'uliyat taqsimoti bilan bog'liq holatlar yuz berishi mumkin. Bunday vaziyatlarda tarbiyachi bolalarni tinchlik, o'zaro hurmat va jamoaviylik ruhida tarbiyalashi, har bir bolaga individual yondashuv asosida yechim topishi lozim.

Mazkur muammoli holatlarda oqilona yo'lni tanlash, xotirjamlikni saqlash va pedagogik sezgirlik bilan yondashish zarur. Har bir bola ma'lum bir yo'nalishga nisbatan tabiiy qiziqish va qobiliyatga ega bo'ladi. Pedagog ana shu qiziqishni payqab, bolaning ichki imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirsa, bu jarayon ijobiy natija beradi. Shuningdek, tarbiyachining asosiy maqsadi – jamoada hamjihatlik muhitini yaratish, bolalarda o'zaro hamkorlik, ishonch va ijobiy munosabatni shakllantirishdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda innovatsion yondashuv usullari sifatida quyidagi faoliyat turlarini ko'rsatish mumkin:

1. O'yinli loyihalashtirish – bolalarni birgalikda fikrlashga undovchi o'yinlar orqali tafakkurni faollashtirish;
2. Muayyan vaziyatli topshiriqlarni bajarish va tahlil qilish – bolalarda mantiqiy xulosa chiqarish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
3. Muammoli holatlar yaratish – ularni birgalikda yechish orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish;
4. Tanqidiy va mustaqil tafakkurni rivojlantirish – bola fikrini erkin ifoda etishga rag'bat berish;
5. Shaxsiy loyihalar yaratishga motivatsiya berish – ijodiy g'oyalarni amalga oshirishga ishonch uyg'otish.

O'yinli loyihalashtirish – bugungi kunda eng samarali va ommalashgan metodlardan biridir. Ammo tarbiyachilar bu jarayonda o'yin turlarini tanlashda guruhning yosh xususiyatlari va qiziqishlarini chuqur tahlil qilishi zarur. To'g'ri tanlangan o'yin bolalarda o'z-o'zini namoyon etish, ijodiy fikrlash va bilishga qiziqishni kuchaytiradi.

Tarbiyachining nutq boyligi, ifoda uslubi va emotsional ta'sir kuchi bolalarda o'yin jarayoniga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bola diqqatini to'plab, fikrlash faoliyatini faollashtira olgan pedagogning mashg'uloti yuqori natijalar beradi. Dastlab ko'rgazmali–amaliy yoki obrazli fikrlash bosqichida bo'lgan bolalarda aynan shunday metodlar mantiqiy–nutqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Innovatsion faoliyat – bu ta'lim jarayonini yengillashtiruvchi, samaradorlikni oshiruvchi va vaqtni tejamkorlik bilan boshqarish imkonini beruvchi ijodiy jarayondir. Bolalar bilan muayyan vaziyatli topshiriqlarni bajarish va ularni tahlil qilish ham ta'limga yangicha yondashuv bo'lib, yangi bilimlarni tushunarli shaklda yetkazishga yordam beradi.

Masalan, bolalarni turli kasblar bilan tanishtirishda pedagog ularning hayotdagi o'rnini oddiy, bolalarga tushunarli misollar orqali yoritib bersa, bola o'sha faoliyat mohiyatini anglaydi. Shunda u har bir mehnat mahsulining orqasida inson fidoyiligi yotganini his qiladi. Ma'lum bir kasb egasining ishini kuzatish yoki uni qisman bajarish jarayoni bolalar uchun qiziqarli tajribaga aylanadi.

Muammoli vaziyat esa – bu bolani fikrlashga, yechim topishga majbur qiluvchi ta'limiy ta'sirdir. Bunday jarayonda bola o'z bilimlarini qo'llash, tahlil qilish va xulosaga kelish ko'nikmasini shakllantiradi. Bu esa uning tafakkurini chuqurlashtirib, dunyoqarashini kengaytiradi hamda o'z bilimdonligi bilan muammolardan chiqib keta olish qobiliyatini mustahkamlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'limda aqliy salohiyatni rivojlantirishda tarbiyachi shaxsining o'rni muhimdir. Har bir bola individual tafakkur sur'atiga ega bo'lgani sababli, ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etilishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalarning aqliy salohiyati ijtimoiy muhit, o'yin faoliyati va pedagogning metodik mahorati ta'sirida shakllanadi.



O'yin jarayoni bola uchun tabiiy bilish muhiti yaratib, kuzatuvchanlik, tahliliy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. O'yinli va muammoli metodlardan foydalanish bolalarda bilimga qiziqishni kuchaytiradi, ijodkorlikni faollashtiradi va mustaqil tafakkurni shakllantiradi.

Pedagogning kommunikativ, didaktik va izlanuvchanlik sifati bu jarayonda asosiy omil hisoblanadi. Tashkilotchilik va muloqot ko'nikmalari jamoada hamkorlik, hurmat va ijobiy munosabatlarni mustahkamlaydi. Innovatsion yondashuv, jumladan Mariya Montessori metodikasi, bolalarda mustaqil fikrlash va muammoli vaziyatlarga ijobiy yechim topish qobiliyatini rivojlantiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, interfaol metodlardan oqilona foydalanish bolalarda nafaqat aqliy, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishni ham ta'minlaydi. Shuningdek, bilimga qiziqish, tanqidiy fikrlash, erkin fikr bildirish, hamkorlik va ijobiy muloqot ko'nikmalari kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi mahorati va metodik yondashuvning ilmiy asoslanishi bolalar tafakkurining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bois pedagoglarning innovatsion kompetensiyasini oshirish – intellektual, mustaqil va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashning muhim garovidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maktabgacha ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bolalarda bu ko'nikmani shakllantirish uchun pedagog ularning qaror qabul qilish jarayoniga yo'naltiruvchi, ammo majbur qilmaydigan tarzda yondashishi lozim. Bola o'z fikrini erkin bayon etish imkoniga ega bo'lishi, har bir fikri e'tibor bilan tinglanishi va ijobiy rag'bat bilan qo'llab-quvvatlanishi zarur. Kamchiliklarni esa tanqidiy emas, balki amaliy ko'rsatma va namunalar orqali tuzatish maqsadga muvofiqdir. Chunki bolalar ko'pincha og'zaki tushuntirishdan ko'ra, amaliy faoliyat jarayonida tezroq o'rganadilar. Natijada ular o'ziga va atrof-dagilarning harakatlariga nisbatan ijobiy yoki tahliliy baho bera olish ko'nikmasini egallaydilar.

Bolalarni o'zining shaxsiy loyihalarini yaratishga qiziqtirish ham ularning tafakkurini rivojlantirishda muhim omil sanaladi. Bunday mashg'ulotlar bolalarning ijodiy faolligini, mantiqiy fikrlashini va tasavvur doirasini kengaytiradi. Agar bolaga mustaqil loyihalar – masalan, konstruktorli o'yinchoqlar yordamida o'z mashinasi yoki uyi modelini yasash imkoniyati berilsa, u tafakkurini yanada faolroq ishga soladi, ijodiy yondashuvni o'zlashtiradi va ongli faoliyatini rivojlantiradi.

Innovatsion metodlardan xabardor, zamonaviy fikrlovchi tarbiyachi ularni ta'lim-tarbiya jarayonida samarali qo'llay oladi. U har bir mashg'ulotda ilg'or texnologiyalarni to'g'ri tanlab, ularning mohiyatini chuqur anglagan holda amaliyotda qo'llasa, ta'lim samaradorligi oshadi. Tarbiyachi bolani qanchalik yaxshi o'rganib, uning ehtiyojlari va qiziqishlarini hisobga olsa, shunchalik ta'lim metodlarining mohiyatini to'laqonli anglaydi va ulardan mahsuldor foydalanadi.

Shu tariqa, har bir ilg'or fikrli pedagog kelajak avlodlarning ilmiy salohiyati yuksak darajada shakllanishi uchun poydevor yaratadi. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: *“Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.”*

Demak, o'z ishiga fidoyilik bilan yondashgan, yangiliklarni puxta o'rganib, o'zining ilg'or pedagogik usullarini yaratishga intilgan tarbiyachilar – jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi, chinakam mahorat sohibalaridir. Ularning ijodkorligi, sabr-toqatliligi va kasbga sadoqati kelajakda intellektual salohiyati yuksak, tafakkuri teran avlodni voyaga yetkazishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: “Tafakkur bo'stoni”, 2013–yil, 90–92–betlar.
2. Qosimov A. X., Xoliqova F. A. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar fanidan ma'ruzalar matni. – Toshkent, 2004–yil, 2–ma'ruza.
3. “Ilk qadam” jurnali, 6–7–son, 2019–yil, sentabr–oktabr, 20–21–betlar.
4. O'rinova F. Tarbiyachining fasilitatorlik yondashuvi // “Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali. – 2024–yil, oktabr, №06–son, 19–25–betlar.
5. Uljayevna O. R. F., Saydamatovna S. Z. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishning o'quv-uslubiy ta'minoti // Science and Innovation. – 2022–yil, T.1, №B3, 349–355–betlar.
6. O'ljayevna O. F. Erta bolalik ta'limida STEAM yondashuvining afzalliklari // International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices. – 2025–yil, 129–136–betlar.
7. O'ljayevna O. F. Technology for Developing Intellectual Competence of Future Teachers Based on an Innovative Approach // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2025–yil, T.5, №3, 566–570–betlar.
8. O'ljayevna O. F., Orifjonovna A. M. Maktabgacha ta'lim tarbiyachi–pedagogining pedagogik faoliyatining o'ziga xosligi // Prospects and Main Trends in Modern Science. – 2024–yil, T.2, №16, 11–13–betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.